

ATILSHUNOSLIK TERMINLARIGA OID MAVJUD IZOHLI LUG‘ATLAR HAQIDA

Axmedova Aynura Quanishbay qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti

4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tilshunoslik, uning ilmiy paradigmalari, sohalari, zamonaviy yo‘nalishlari haqida ma’lumot berilgan. Shu kunga qadar yaratilgan tilshunoslik terminlariga oid izohli lug‘atlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *lug‘at, termin, terminologik tizim, ilmiy paradigma, tilshunoslik, zamonaviy lingvistik soha, lingvistik yo‘nalish.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о лингвистике, ее научных парадигмах, областях и современных тенденциях. Проанализированы созданные к настоящему времени аннотированные словари лингвистических терминов.*

Abstract: *This article provides information about linguistics, its scientific paradigms, fields and modern trends. The annotated dictionaries of linguistic terms created to date are analyzed.*

Kalit so‘zlar: *lug‘at, termin, terminologik tizim, ilmiy paradigma, tilshunoslik, zamonaviy lingvistik soha, lingvistik yo‘nalish.*

Ключевые слова: *словарь, термин, терминологическая система, научная парадигма, лингвистика, современное лингвистическое поле, лингвистическое направление.*

Key words: *dictionary, term, terminological system, scientific paradigm, linguistics, modern linguistic field, linguistic direction.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligi shu kunga qadar ko‘plab taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi. Ma’lumki tilshunoslikka doir ilk ma’lumotlar bizning bobolarimiz – Sharq allomlari tomonidan aytib o‘tilgan. Masalan, tilshunoslikda til va nutq hodisasini ilk bor shvetsariyalik lingvist olim F.Sossyur farqlaganligi aytiladi. Ammo undan 900 yil avval Abu Nasr Forobiy bu alohida hodisalarni oraz (substansiya) va javhar (aksidensiya) deya atagan va farqlagan edi [4:7]. Allomalarimizdan keyin Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka asos soldi va turkiy xalqlar uchun bebaho manbani meros qoldirdi. XV asrda Alisher Navoiy ham

“Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida nafaqat turkiy til imkoniyatlarini ochib berdi, balki bu asari orqali chog‘ishtirma tilshunoslikka ham asos soldi.

XX asrga kelib jahon tilshunosligida yangi ilmiy paradigma – antroposentrizm shakllandi. Bu jarayonda til va insoniyatga ajralmas yaxlitlik, bir butunlik sifatida qarash shakllandi, ya‘ni tilning inson tafakkurining mahsuli, o‘zida muayyan til egasining bilimlarini, lisoniy ko‘nikmalarini, tajribalarini saqlovchi vosita ekanligiga ko‘proq e‘tibor qaratila boshlandi. Natijada tilshunoslikda tilni shaxs omili bilan bog‘liq holda o‘rganish usuliga asoslangan va o‘ziga xos tahlil usullariga ega antroposentrik paradigma paydo bo‘ldi. Antroposentrizm so‘zi lotincha “antropos” – odam va “centrum” – markaz so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan bo‘lib, uning mohiyati: har qanday tadqiqotning markazida inson, ya‘ni til sohibi turishidir. Til nafaqat til sohibining bilimlarini, ko‘nikma, tajribalarini saqlaydi, shuningdek u o‘zida shaxsning dunyoqarashini, tafakkur tarzini, ruhiy holatini, axloqi, hayot tarzini, milliy mentalitet, milliy madaniyat, qadriyatlarni ham aks ettiradi. Shu sababli bugungi kunda antroposentrik lingvistikaning lingvokulturologiya, pisixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv lingvistika, etnolingvistika, aksiolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalari ajralib chiqdi. O‘ziga xos ehtiyojlar sababli mazkur zamonaviy lingvistik sohalar ham o‘zining lug‘at tarkibini, terminologik tizimini shakllantirdi.

Asosiy qism. Yangi lingvistik paradigmaga oid nazariyalar o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishi bilan terminologiya tizimi muayyan yangi o‘zlashma terminlarga sezilarli darajada boyidi. Inglizcha yoki ruscha baynalmilal terminlar hech qanday o‘zgarishlarsiz, to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilindi. Natijada bugungi kunda mazkur yangi terminlar izohiga bag‘ishlangan mukammal terminologik lug‘atlar yaratish kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Lug‘atlar yaratilmaguncha terminologik tizimdagi har xil salbiy hodisalar, masalan, ayni bir tushunchani ifodalash uchun birdan ortiq terminning qo‘llanilishi, va aksincha, boshqa-boshqa hodisalarni ifodalash uchun bir terminning qo‘llanilishi, hodisaning mohiyatini to‘g‘ri, to‘la va aniq ifodalay olmaydigan terminlarning mavjud bo‘lishi kabi va boshqa salbiy hodisalar davom etaveradi [3:3].

Bugungi kunda o‘zbek leksikografiyasida ko‘pgina sohalarga oid terminologik lug‘atlar yaratilgan. Masalan, X.Y.Bekmuhammedovning “Tarix terminlari izohli lug‘ati”, F.Bakirovning “Yuridik terminlar lug‘ati”, A.Qosimovning 4 jildidan iborat “Tibbiy terminlar izohli lug‘ati” va boshqa ko‘plab sohalarga oid istilohlarni qamrab olgan terminologik lug‘atlar yaratildi. Xususan, tilshunoslikka oid terminlarni qamrab olgan izohli lug‘atlar yaratish mustaqillik yillaridayoq boshlangan. Bu jarayonda eng ko‘p mehnat qilgan, jarayonning peshqadami, tilshunoslik terminlariga oid izohli lug‘atni ikki marta nashr ettirgan olim Azim Hojiyevdir. Olim ilk bor 1985-yilda “Lingvistik

terminlarning izohli lug‘ati”, ikkinchi marta 2002-yilda “Tilshunoslik terminlarning izohli lug‘ati” nomi ostida nashr ettirgan. Keyingi nashrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan lug‘at qayta ishlanib, ko‘pgina ruscha terminlar o‘zbekchalashtirilgan. Ushbu lug‘at 1700 ta terminni o‘z ichiga qamrab olgan. 2013-yilda ushbu lug‘at N.Mahkamov, I.Ermatovlar tomonidan qayta ishlanib, “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” bo‘lib bosmadan chiqdi. Lug‘at tilshunoslikka oid 1500 ga terminni o‘z ichiga olgan. Bunda umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan ona tili darsliklaridagi asosiy terminlar izohi berilgan. Shuningdek, o‘tmishda yaratilgan, lekin hozirgi davr darsliklarida qo‘llanilmagan terminlar ham kiritilgan. Chunki barcha ona tili darsliklaridagi terminlar qo‘llanilish doirasining ko‘lami va davriyligidan qat’i nazar, shubhasiz, keyingi davr lingvistik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti uchun o‘z ta’sirini ko‘rsatgan[3:5].

Aytib o‘tganimizdek, tilshunoslikning zamonaviy sohalar paydo bo‘lishi, ko‘plab terminlarning o‘zlashishi munosabati bilan zamonaviy lingvistik sohalar terminlari izohiga bag‘ishlangan alohida terminologik lug‘atlar yaratish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Bugungi kunda ilmiy tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida zamonaviy tilshunoslik sohalariga oid fanlar, kurslarni o‘zlashtirishda ham mazkur lug‘atlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu masalada sarmahsul ishlarni amalga oshirgan insonlardan biri professor olima Durdona Xudoyberganovadir. U 2015-yilda “Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati” ni nashr ettirgan. Lug‘at yangi lingvistik soha – lingvokulturologiya haqida qisqacha ma’lumotlar, terminlar izohidan iborat. 2024-yilda esa olima “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” ni nashr ettirdi. Ushbu lug‘atda o‘zbek zamonaviy tilshunosligining kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, assotsiativ tilshunoslik, gender tilshunosligi, medialingvistika, matnshunoslik, metaforashunoslik kabi soha va yo‘nalishlarining asosiy terminlari izohlangan. Lug‘atni yaratishda ushbu sohalarga bag‘ishlangan o‘zbek tilshunoslarining asarlaridan, tadqiqotlaridan, shuningdek, xorijiy adabiyotlar va lug‘atlardan ham foydalanilgan. Lug‘atning tuzilishi asosan, termin va unga berilgan izohdan iborat. Polisemantik terminlarning har bir ma’nosi alohida arab raqamlari bilan ajratilgan. Ayrim terminlarning etimologiyasi, shuningdek, ayrim terminlarni muomalaga olib kirgan tadqiqotchilar ham kerakli termin izohidan keyin berib ketilgan [8:6].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jamiyatda barcha sohalar kabi tilshunoslik sohasida ham terminning mohiyatini to‘la va aniq ifodalaydigan, imkoni boricha boricha ushbu sohaning barcha terminlarini qamrab olgan izohli lug‘atlar yaratish hamisha dolzarb masalalardan biri bo‘lgan va bu jarayon davom etadi. Chunki til dinamik hodisadir. U

hamisha rivojlanib, takomillashib boradi. Til doim o'zgarishda ekan, unga bog'liq ilmiy tadqiqotlar, nazariyalar ham takomillashishda davom etadi. Shunday ekan, bu jarayon tilshunoslik terminlariga oid izohli lug'atlarni, terminologik tizimni tartibga solib turishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019;
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002;
3. Mahkamov N, Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2013;
4. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2002;
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Sangzor, 2006;
6. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015;
7. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013;
8. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024.